

**METHODS AND MEANS OF EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATION IN
PRESCHOOL ORGANIZATIONS**

Berdikulova Nasiba Jurakulovna

Gulistan State University, Master of Faculty of Pedagogy Theory and methods of education and upbringing

ABSTRACT

This article discusses the methods and tools of person-centered education in preschool education and analyzes its achievements.

Keywords: Continuity of education, preschool education, improvement, material and technical base, teaching staff, modern educational programs, technologies, intellectual development, socialization, differentiation, modeling.

INTRODUCTION

Butun dunyoda ta'lim va tarbiyani izchilligi va uzviy olib borilishi eng asosiy muommalardan biri. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayon tarbiyalanuvchida muayyan his-tuyg'ularning uyg'onishiga olib kelishi zarur. Zero, ta'limni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad tarbiyalanuvchiga ilmiy bilimlarni berish, ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanmay, har bir tarbiyalanuvchining his-tuyg'ularini rivojlantirish, o'z ichki kechinmalarini anglash, xohish-istak va ehtiyojlarini baholay olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday jarayon tarbiyalanuvchining shaxs sifatida shakllanishlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu g'oyani L.V.Zan'kov, V.V.Davidov, A.N.Leontevlar ham tasdiqlaydilar.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi ta'lim-tarbiya rivojlanishi uchun katta imkoniyat eshigini ochdi. Hozirgi davr talabi bilan kelajagimiz bo'lgan farzandlarimizga ta'lim va tarbiya berishni erta yoshdanoq boshlashi haqida fikrlar paydo bo'ldi. Bu esa ta'lim berishni poydevori boshlang'ich ta'lim emas, balki maktabgacha ta'lim ekanligi e'tirof etildi va maktabgacha ta'limga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2016-yil 29-dekabrda 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takommallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (PQ-2707) prezident qarori qabul qilindi[1.,1-b].

Mamlakatimizda bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimiga bir qator yangiliklar kiritilmoqda. Chunki, mustaqil vatanimiz O'zbekistonni gullab- yashnashi , rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shishda yosh avlodni o'rni beqiyosdir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar: "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro' - e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir." [2.,3-b]— deb alohida ta'kidlaganlar. Farzandlarimizga bermoqchi bo'lgan ta'lim-tarbiyani esa bola tug'ilgandanoq boshlashimiz darkor. Chunki, "...uch yoshgacha bo'lgan bola miyasining ma'lumotini qabul qilish qobiliyati katta odamnikiga nisbatan ustunroq. Faqat unga ko'proq berish yoki qiziqish uyg'otishdan qo'rqmaslik kerak: yosh bola miyasi shimgich (bosma qog'oz) kabi bilimni o'ziga shimib oladi, agar to'lib ketganini sezsa o'chiradi va yangi ma'lumotlarni qabul qilishni to'xtatadi. Biz xavotir olishimiz kerak bo'lgan narsa bolaga

ma'lumot ko'p berayotganimiz emas, balki bolani aqlan to'laqonli rivojlantirish uchun ma'lumotlarning juda kam taqdim etayotganimizdadir."[4.,40-b]

Shunday ekan, ta'lim tizimining poydevori bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida bola shaxsini to'laqonli rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratmog'imiz muhimdir. Avvalo, ta'lim va tarbiya beruvchi malakali pedagog kadrlarga e'tiborimizni qaratmog'imiz darkor. Tarbiyachi bola shaxsini shakllantirishda mashg'ulotlarni to'g'ri va qiziqarli tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

MAIN PART

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim jarayonini tashkil etishning asosi sifatida shaxsning jamoa oldidagi ustuvorlikni nazarda tutgan holda unda insonparvarlik munosabatlarining shakllantirilishini taqozo etadi. Bunda bola o'zini shaxs sifatida his etadi, boshqa kishilarda shaxsga xos xislatlarni ko'rishni (kattalarda va atrofda) o'rganadi. Har bir bola imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish esa pedagogning qadriyatlar yo'nalishlari xatti-harakatida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyatlarga munosabati, mo'ljallar tizimi, xohish-istaklari bilan belgilanadi.

II. Bolaga yo'naltirilgan ta'limiy yondashuv bu bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, talab-ehhtiyojlari, uning ta'lim maqsadlariga erishish uchun yordam beradigan maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgunga qadar to'plangan tajribasi e'tiborga olingan ta'lim shaklidir. Bunda:

- Ta'lim jarayoni bolaning eng odatiy tarzda rivojlanishi va ta'lim olishiga doir bilimlarga asoslanishi lozim;
- Ta'lim muvaffaqiyatli pedagog tomonidan bolani rivojlantirish va o'qitish uchun va yo'l-yo'riqlariga oid bilimlarni qay darajada egallaganiga bog'liq;
- Pedagogning asosiy vazifasi bolaning rivojlanishiga ko'maklashishidir;
- Maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyati – bolaning qadrini tushunish va vaqtdan oldin ulg'ayishiga undamaslik.

Tarbiyalanuvchi shaxsini axloqiy tarbiyalash jarayoniga texnologik yondashuvda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida hamkorlik, ularning bir-biriga ta'siri hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish, shaxsni shakllantirishga yo'naltiruvchi uslublar, tarbiyalanuvchi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, pedagogik jarayonda paydo bo'lgan muammolarni bartaraf etish, ijodiy ishchanlik muhitini yaratish, tarbiyalanuvchi faoliyatini baholash kabi o'quv-biluv ishlari amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida tarbiyalash quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Maktabgacha ta'lim jarayonida muomala mazmuni, muhit, o'zaro munosabatlar uslubi tarbiyalanuvchiga barcha insoniy hislatlarni o'zlashtirish, o'zini inson sifatida anglash, hurmat qilish tuyg'usini tarbiyalashga yordam berishi kerak.
2. Pedagogik jarayon o'zgalarning his-tuyg'ularini his etish, ahloqiy me'yorlarga amal qilish, shuningdek, ta'limning ijtimoiy ahamiyatini tushunishga yordam berishi zarur.
3. Pedagogik jarayon tarbiyalanuvchilarda ijodkorlik, ziyraklik, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni tarbiyalashi lozim.

Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, katta yoshdagi kishi intellektual qobiliyatining 70% hayotning dastlabki 5 yilida shakllanadi[3.,9-b].

Shu jihatdan pedagogik jarayonni tarbiyalanuvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda tarbiyalanuvchilarning yoshini va ularning "Men"ini hisobga olgan holda mashg'ulot texnologiyalarini tanlash maqsadga muvofiq.

Bundan ko'zlangan bosh maqsad tarbiyalanuvchilarni axloqiy shakllantirishga yo'naltirilgan ekan, ta'lim jarayonini muayyan bosqichlarga bo'lib olish va har bir bosqich uchun xususiy maqsadlarni ham belgilash, shuningdek, bosh va xususiy maqsadlarni amalga oshirishga yordam beruvchi metod hamda usullarni tanlash, bu yo'lda uchraydigan katta-kichik muammolarni hal etish asosida ular o'rtasida o'zaro uyg'unlikni hosil qilishga qaratiladi. Bu jarayonda bosh maqsad bilish jarayonini tashkil etish, tarbiyalanuvchida pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat bo'lsa, uni amalga oshirish chog'ida quyidagi xususiy maqsadlar ham hal etiladi:

- shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar;
- irsiyatning shaxs kamolotidagi o'rni;
- naslning ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishiga ta'siri;
- muhitning shaxs rivojlanishiga ta'siri;
- tarbiyaning shaxs shakllanishidagi o'rni;
- faoliyatning inson hayotidagi ahamiyati;
- shaxsni shakllantirishda individual xususiyatlar (shu jumladan, tarbiyalanuvchining yosh xususiyatlari)ni hisobga olish;
- akseleratsiya va bu jarayonda yuzaga keluvchi pedagogik muammolar;
- shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishining o'ziga xos jihatlari;
- jismoniy rivojlanish qonuniyatlari;
- shaxsning ijtimoiylashuvi.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida

baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'bir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, uning mazmunini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim jarayonini ijtimoiylashtirish va differentsiatsiyalash shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim muassasalarining maktabga tayyorlov guruhlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda katta imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- bolalarning intellektual rivojlanishi;
- jismoniy rivojlanishi;
- mehnatga ijobiy munosabatning tarkib topishi;
- estetik did va estetik ongning shakllanishi;
- ekologik madaniyat;
- iqtisodiy tarbiya elementlari va xokazo.

“Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi”ning ham bosh g'oyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish tashkil etgan.[5.,14] Ana shu asosdan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga doir zamonaviy yondashuvlar sifatida ijtimoiy-pedagogik, gnoseologik (bilishga doir), psixologik, akmeologik kabilarga alohida e'tibor qaratish, ulardan yaxlit tarzda foydalanish bayon etilgan. Shuningdek, Konsepsiyada maktabgacha ta'limning asosiy ikkita didaktik va uslubik modellarining mohiyati ham chuqur va etarlicha yoritib berilgan. Har ikkala model ham shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari nuqtayi nazaridan asoslab berilgan bo'lib. ularning asosiy tamoyillari, ta'lim vositalari, bosqichlari hamda pedagog va bolalarning o'zaro harakati turlari aniq ko'rsatib berilgan. Konsepsiyaning uchinchi - “Maktabgacha ta'limning tuzilishi” bo'limida maktabgacha ta'lim muassasalarining turlari, tabaqalashtirilgan yondashuv asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida guruhlarini shakllantirish, ularni zarur jihozlar bilan ta'minlash, mazkur ta'lim muassasalarida ijtimoiy va psixologik xizmatni yo'lga qo'yish, maktabgacha ta'lim muassasalarida uchun tarbiyachilar tayyorlash tizimi, maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Konsepsiyada maktabgacha ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan guruhlarini tashkil etishning tabaqalashtirilgan yondashuvga asoslangan quyidagi maqbul varianti taqdim etilgan:

- ilk yosh guruhida - 8-10 bola

- ilk yoshdan uch yoshgacha - 10-14 bola

- uch yoshdan besh yoshgacha - 14-20 bola

- besh yoshdan yetti yoshgacha guruhda - 20-25 bola

- turli yoshdagi tarbiyalanuvchilardan tashkil topgan guruhda: 10-12 ta bolaning qamrab olinishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, Konsepsiyada ta'kidlab o'tilganidek, maktabgacha ta'lim muassasalarini narsa-buyumlar bilan jihozlashda milliy-etnik, moddiy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligiga erishish lozim. Chunki aynan maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab boiada ma'naviy-axloqiy qiyofa shakllana borib, uning har tomonlama uyg'un rivojlanishiga tamal toshi qo'yiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik va ijtimoiy xizmatning birga olib borilishi tarbiya samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Psixologik xizmat bolaning har tomonlama, psixik va shaxsiy rivojlanishiga imkon bersa, ijtimoiy xizmat esa bolaning sotsium (ta'lim muassasasi, oila va mahalla)dagi tarbiyasi, rivojlanishi va to'liq ijtimoiylashuvini ta'minlashga doir shart-sharoitlar yaratadi. Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan mashg'ulot jarayonini tashkil etishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, uning mazmunini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim jarayonini ijtimoiylashtirish va differentsiatsiyalash shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Suhbat metodi", "Faoliyat o'yini", "Evristik metod", "Tadqiqot metodi", "Ijodkorlik metodi", "Izlab top", "Nima bo'lardi agar" metodi, "Hikoya metodi", "Uyga vazifa", "Guruhlarda ishlash", "Klaster" metodi, "Qarorlar shajarasi", "6x6x6" metodi, "Kubik-kubik" metodi shular jumlasidandir.

CONCLUSION

Xulosa qilib aytganda, shaxs individ – shaxs – inson tizimida o'z dunyoqarashi, nuqtai nazariga ega bo'lish, o'z haq-huquqini hurmat qilishga o'rganish, shaxslik xislatlarini tushunish, shuningdek, o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini namoyon etib, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Insonda yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar rivojlanib, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati muayyan bosqichga yetgandagina u barkamol shaxs darajasiga ko'tariladi.

Pedagogik ta'limning asosiy maqsadi ham shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik, jisimoiy rivojlanishini ta'minlash, uning ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama yuzaga chiqarish, unda insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.:2016y. 29-dekabr (PQ-2707)
2. I.A. Karimov «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» «Ma'naviyat»-T.: 2008
3. "Ilm yo'li" variativ dasturi .-T.:2019
4. Masaru Ibuka "Uchdan keyin kech" "Akademnashr"-T.: 2019 (Nurmukhammad Nargiza Hamidulla qizi tarjimasini)
5. Sh. Sodiqova "Maktabgacha pedagogika" "Tafakkur bo'stoni" –T.:2013
6. <http://www.ziyonet.uz>